

## SHINJON O‘ZBEK SHOIRI VASLIY IJODIDA “QOLDIMU?” RADIFLI G‘AZALNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

**Gulnoza Turdiyeva Sayfullayevna,**

*O‘zDJTU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi*

*ilmiy tadqiqotchi, Toshkent, O‘zbekiston,*

<https://orcid.org/0009-0000-0312-8745>

[turdiyeva806@gmail.com](mailto:turdiyeva806@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asrning birinchi yarmida Sharqiy Turkiston o‘zbek adabiy muhitida ijod qilgan Aziziddin Muhammad Qamariddin o‘g‘li Vasliy she‘riyatidagi poetik leksika xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. “Shinjon o‘zbek shoirlari” to‘plamidagi lirik she‘rlar tasnifi shundan dalolat beradiki, Vasliy o‘zbek mumtoz she‘riyatida Navoiy, Furqat, Huvaydo Muqimiy kabi shoirlarning ijodiy an‘anasiga xos mavzularni qalamga olgan, uslub jihatdan ijodiy ergashgan. Vasliy ijodiga oid “Qoldimu” radifli g‘azal lingvopoetikaning bugungi taraqqiyot natijalari asosida tadqiq etiladi, metafora, epitet, o‘xshatish va poetik sintaksis birliklarining semantik va funksional jihatlari yoritiladi. Bu kabi tadqiqotlar orqali o‘sha davr Sharqiy Turkistondagi uyg‘ur va o‘zbek shoirlarining ijodiy hamkorligi, mumtoz an‘analarga munosabati haqida tushuncha hosil bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** lingvopoetika, poetik leksika, adabiy muhit, ijtimoiy-siyosiy hayot, Vasliy, g‘azal, an‘ana, metafora, epitet, turkiy she‘riyat.

**Abstract.** This article discusses the characteristics of poetic vocabulary in the poetry of Aziziddin Muhammad Qamariddin o‘g‘li Vasliy, who was active in the Uzbek literary environment of East Turkestan during the first half of the twentieth century. The classification of lyrical poems included in the collection “Xinjiang Uzbek Poets” demonstrates that Vasliy addressed themes characteristic of the creative traditions of prominent representatives of classical Uzbek poetry, such as Navoi, Furqat, Huvaydo, and Muqimiy, while also creatively following their stylistic approaches. The ghazal with the refrain “Qoldimu” is examined on the basis of contemporary achievements in linguopoetic studies, with particular attention paid to the semantic and functional aspects of metaphor, epithet, simile, and poetic syntactic units. Such research contributes to a deeper understanding of the creative collaboration between Uyghur and Uzbek poets in East Turkestan during that period, as well as their attitudes toward classical literary traditions.

**Keywords:** linguopoetics, poetic vocabulary, literary environment, socio-political life, Vasliy, ghazal, tradition, metaphor, epithet, Turkic poetry.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются особенности поэтической лексики в творчестве Азизиддина Мухаммада Камариддина угли Васлия, творившего в узбекской литературной среде Восточного Туркестана в первой половине XX века. Классификация лирических произведений, представленных в сборнике «Узбекские поэты Синьцзяна», свидетельствует о том, что Васлий обращался к темам, характерным для творческих традиций классической узбекской поэзии, представленных такими поэтами, как Навои, Фуркат, Хувайдо и Мукими, а также творчески следовал их стилю. Газель с радифом «Колдиму» исследуется на основе современных достижений лингвопоэтики; раскрываются семантические и функциональные особенности метафоры, эпитета, сравнения и единиц поэтического синтаксиса. Подобные исследования позволяют глубже понять творческое сотрудничество уйгурских и узбекских поэтов Восточного Туркестана того периода, а также их отношение к классическим литературным традициям.

**Ключевые слова:** лингвопоэтика, поэтическая лексика, литературная среда, общественно-политическая жизнь, Васлий, газель, традиция, метафора, эпитет, тюркская поэзия.

**Kirish.** Uyg‘ur bugungi zamon adabiyotining bir qator alohidaliklari bilan uyg‘ur adabiyoti tarixida emas, uyg‘ur jamiyat taraqqiyoti tarixi, falsafa, idea tarixi va madaniyati tarixida ham muhim o‘rin tutadi [1]. Bu davr adabiy muhitida o‘z qobig‘ida emas, balki yondosh xalqlar adabiyotining muhim badiiy mezonlarini o‘zlashtirgan holda rivojlanib, boyib borgan adabiyot maydoni bir qancha iste‘dod vakillariga beshik bo‘ldi. Shunday shoirlardan biri o‘zbek ziyoli oilalaridan birida tavallud topib, yoshlik chog‘laridan Sharqiy Turkistonga ketib hayot kechirgan ijodkor Vasliy ham bor [2]. Aziziddin Muhammad Qamariddin o‘g‘li Vasliy 1919-yili O‘shda tug‘ilgan, 1933-yili oilasidagilar bilan Shinjon -Uyg‘ur avtonom rayoniga ko‘chib kelib, o‘troqlashgan. Aziziddin nasab jihatdan II asrdan buyon Janubiy Shinjonda yuksak hurmat va o‘ziga yarasha ijtimoiy munosabatga ega shoir Huvaydoning avlodi hisoblanadi. Huvaydoning qarindoshlari Salohiddin Soqib, Sirojiddin Sirojijiy kabilar ham hayotining ma‘lum qismini Yakanda o‘tkazgan va o‘z zamonasida adabiy muhit yaratgandi. Vasliy ijodiyoti ham ana shu adabiy muhitning mantiqiy davomi bo‘lib, uning she‘rlaridan Huvaydo she‘rlarining uslubi” [2], shu bilan birga, mumtoz g‘azalchilik an‘analariga sodiqlik uslubi sezilib turadi. “Shinjong o‘zbek shoirlari” [3] to‘plamidagi lirik she‘rlar tasnifi shundan dalolat beradiki, Vasliy o‘zbek mumtoz she‘riyatida Furqat, Huvaydo Muqimiy, Xislat, Zavqiy kabi shoirlarning millatparvarlik va ma‘rifatparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan ijodiy an‘anasiga xos mavzularni qalamga olgan, uslub jihatdan ijodiy ergashgan.

**Metodologiya.** Tadqiqotda lingvopoetik tahlil, semantik-stilistik tahlil, qiyosiy tarixiy metod, struktural-semiotik yondashuv usullari qo‘llanildi.

**Tahlil va natijalar.** Vasliy ijodidan o‘rin olgan “Qildimu” radifli g‘azali ishqiy mavzuda bo‘lib, “qildimu” radifi asosiy poetik-kompozitsion vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu radif baytlar mazmunini o‘zaro bog‘lash hamda lirik qahramon ruhiy holatini izchil ifodalashga xizmat qilgan, uning har bir misra oxirida takrorlanishi she‘rning ohangdorligini kuchaytirib, musiqiylik hosil qilgan. Ma‘lumki, “qildimu” yordamchi fe‘li alohida mazmunga ega emas, o‘zidan oldin kelgan qofiya so‘zga qo‘shilib, quyidagicha qo‘shma fe‘llar hosil qilgan: “munavvar qildimu”, “muattar qildimu”, “musavvar qildimu” kabi.

Asarda tasviriy vositalarning faol qo‘llanganini kuzatish mumkin:

*“Yorga aynakdin qarang, yuzin munavvar qildimu,  
Tebratib boda sabo, sochin muattar qildimu”.*

Bu misralarda “yor”, “yuz”, “soch”, “bodi sabo” birliklari metaforik tizim hosil qiladi. R.Yakobson metaforani poetik tilning asosiy mexanizmi deb hisoblaydi [4]. Misradagi “yorga aynakdin qarang” tasvirida ishlatilgan detallar nomi ham (masalan, aynak) uyg‘ur adabiy muhitida o‘zbek tilining o‘zgarishsiz davom etib kelganidan darak beradi. Birinchi misradagi “yorga aynakdan qarang”ni ikki ma‘noda tushunish mumkin: 1) ko‘zoynakdan qarash, 2) ko‘zgudan qarash va uning yuzi yanada nurli, porloq bo‘lib ko‘rinadi. Yoki poetik ma‘noda: yorning husni oynada aks etib yoki ko‘zoynakdan qaraganda yanada

go‘zallashdi, ikkala holatda ham nur, yarqiroq, yaqqolroq ko‘rinish va yorug‘lik semalari estetik ma‘no kasb etadi. Mumtoz she‘riyatda **oyna (aynak)** ko‘pincha qalb, poklik, haqiqat, ruhiy musaffolik ramzi sifatida qo‘llanadi. Shu bois baytda yor husni faqat tashqi go‘zallikdan emas, balki ma‘naviy olami boyligidan nurli bo‘lishi mumkin. Ikkinchi misradagi “bodi sabo” hamda “sochi muattar” birliklari sharq mumtoz poetikasiga xos an‘anaviy obrazlar, yor go‘zalligini mubolag‘ali tarzda tasvirlab, o‘zaro semantik uyg‘unlik hosil qilgan. Shoir tonggi shamol yengil esib, yor sochlarini sochib, uning muattar bo‘yini atrofga taratishi holatidan go‘zal manzara yaratadi.

Ikkinchi baytning *Ayladi yordan judo, charxi mudavvar qildimu* misrasidagi “**charxi mudavvar**” obrazi orqali taqdir va falak timsoli ifodalangan[5]. Mumtoz adabiyotda “charxi mudavvar” – aylanuvchi falak, doimo o‘zgarib turuvchi dunyo va taqdir timsoli. U ko‘pincha, beqaror hayot, o‘zgaruvchan taqdir, inson ustidan hukm yurituvchi falak, zamonning aylanishi ma‘nolarida qo‘llanadi. Mumtoz shoirlarda “charxi kajraftor”, “charxi dun” kabi obrazlar falakning inson taqdiriga ta‘sirini ifodalaydi, falak ko‘pincha oshiq va yor orasini ayiruvchi sifatida ham talqin qilinadi. “Ayladi yordan judo” jumlasini buni aniq ko‘rsatib turibdi. Ushbu baytda fonetik takrorlar (“judo”, “mudavvar”) ham ohangdorlikni kuchaytirgan.

G‘azalning keyingi baytlarida ishq konsepti markaziy semantik maydon sifatida namoyon bo‘ladi. “**Mehri anvor**” birikmasida yor quyosh nuriga qiyoslanadi. Bu esa mumtoz poetik tafakkurdagi yor–quyosh parallelizmini eslatadi. “Munavvar yuz”, “muattar soch” epitellari Vinogradov izohlaganidek, “badiiy nutqda semantik intensivlikni oshiruvchi vosita: [6]. sifatida yor yuzi, sochlarini sifatlaydi “*Ishq ahliga demak lozim emas behuda so‘z*” deb boshlanuvchi baytda didaktik ruh kuchli. Shoir ishq ahli uchun so‘zning mas‘uliyati va ma‘naviy qimmatini biladi. “*Muhabbat lavzini boshga absar qildimu*” misrasida muhabbat ulug‘lanib, muqaddas tushuncha darajasiga ko‘tarilgan va abstrakt tushuncha konkret poetik tasvir orqali ifodalangan. “**Lavz**” – so‘z, nom ma‘nolarini anglatadi. Demak, oshiq muhabbat nomini tilga olish bilangina cheklanmaydi, uni o‘z hayotining mazmuniga aylantiradi. Bu o‘rinda so‘zning semantik yuklamasi kengayib, ramziy ma‘no kasb etgan. “Boshga absar qildimu” jumlasida “**absar**” arabcha so‘z bo‘lib, “basar” (ko‘rish, nigoh, ko‘z) bilan bog‘liq poetik shakl sifatida talqin qilinadi[7]. Ya‘ni muhabbat faqat til yoki qalbda emas, ko‘zda, nigohda, butun mavjudlikda yashaydi. Kontekstga qarab “boshga ko‘tarmoq”, “aziz tutmoq”, “ulug‘lamoq”, “eng yuqori qadriyatga aylantirmoq” ma‘nolariga yaqin jumlaning shoir o‘z misralarida “Muhabbat so‘zini eng ulug‘ qadriyat deb bildim”, “Muhabbatni boshimga toj qildim” ma‘nosida tushuntiradi.

“*Qirq bir yolg‘on*” bilan “*Ming bir hikoyat*” aytaman misrasi folklor va mumtoz sharq hikoyachilik an‘anasi bilan bog‘langan intertekstual birlik sifatida namoyon bo‘ladi. “Qirq bir yolg‘on” xalq og‘zaki ijodidagi mubolag‘ali, sarguzasht ruhidagi yolg‘on hikoyalarni eslatib, “Ming bir hikoyat” birikmasi Sharq adabiyotidagi mashhur “Ming bir

kecha” syujet tizimini yodga soladi. Shoir ushbu birliklarni qo‘llash orqali oshiqning cheksiz iztiroblari, tuganmas dard-qissalari va kechinmalarini folklorona tasvir vositasida bir baytga jamlab, matnning semantik qatlamini kengaytirgan. Shu bilan birga, baytda xalqona uslub va mumtoz poetik tafakkur uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. “Ibni Manzar” birikmasi sharq mumtoz poetikasiga xos arabiy nisba shaklini eslatib, she’rning uslubiy tantanavorligini kuchaytirgan. Ushbu birlik poetik matnda intertekstual va kitobiy ruh hosil qilishga xizmat qilgan. Keyingi:

*Ayladim “Bo‘ston”, “Guliston”, toleyim yovar bo‘lub,*

*Charx ustida kavokib najm-u axtar qildimu* bayti mumtoz she’riyatning ramziy-obrazli qatlamiga boy bo‘lib, unda lingvopoetik vositalar orqali shoirning ma’naviy yuksalishi, ilm-ma’rifat sari intilishi va ijodiy kamoloti ifodalangan. “Bo‘ston” va “Guliston” nomlarining qo‘llanishi boshqa badiiy matnga ishora qiladi. Bu intertekstual birlikda shoir Sa’diy Sheroziyning mashhur asarlari ijodidan bahramand bo‘lib, o‘z ma’naviy kamolotini shu asarlar bilan bog‘layotganini poetik tarzda ifodalaydi. **“Bo‘ston”, “Guliston”** – Ilm, hikmat, adab timsoli, metonimiya. Misradagi **“yovar”** – yordamchi, madadkor, ya’ni toleyim yordam berib ma’nosida qo‘llangan, **kavokib, najm, axtar** – yulduzlar sifatida sinonimik gradatsiya yoki ma’nodosh poetik uyushmani hosil qilgan. Baytda barcha osmon-falak tizimiga oid so‘zlar o‘zaro semantik uyg‘unlik hosil qilgan: charx, kavokib, najm, axtar. Shoir ushbu sinonim so‘zlarning har biriga xos ma’nolarni chuqur farqlaydi, ayniqsa, *axtarning* porloq yulduz, baxt timsoli ekanligini toleyiga bog‘laydi. Ushbu bayt faqat voqelikni emas, balki shoirning ruhiy-intellektual olamini ham aks ettiradi. Unda metafora, metonimiya sinonimik gradatsiya kabi lingvopoetik vositalar uyg‘unlashib, shoirning ilm-ma’rifat orqali kamol topishi va yuksak maqsadlar sari intilishi badiiy ifodalangan.

*Oshiqiy yor ishqini ko‘nglida tutti qaror,*

*Suratini sahfayi dilga musavvar qildimu* misralari orqali shoir Oshiqiy (taxallus, Vasliyga uyadosh, ayni damdagi hol-ahvoliga monand tanlangan poetik nom) yor muhabbatini qalbida abadiy saqladi va uning qiyofasini ko‘ngil sahifasiga muhrlab qo‘ydi. **“Sahfayi dil”** (qalb sahifasi) ko‘ngilni kitob yoki yozuv maydoniga qiyoslash asosidagi metaforadir. Shoir qalbni sahifa, yor suratini esa unga chizilgan naqsh sifatida tasvirlaydi. Bu tasvir sharq mumtoz she’riyatida keng tarqalgan poetik modeldir. Baytda metafora, ramziylik, o‘quvchining ko‘z oldida aniq manzara, obraz yoki holatni gavdalantirish vositasida ko‘ngilning “sahifa”, yor suratining esa “naqsh” sifatida ifodalanishi baytning lingvopoetik qimmatini oshirgan.

*Ey Vasliy yorni ishqida takallum ayladim,*

*Yor ishqini ko‘ngil g‘ayri muqarrar qildimu.*

G‘azalning maqta’ baytida taxallus qo‘llanishi mumtoz g‘azalchilik an’anasiga xos. “Ey Vasliy” murojaati orqali shoir o‘zini bevosita poetik nutqqa olib kiradi. “Yor ishqini ko‘ngil g‘ayri muqarrar qildimu” misrasidagi **“ko‘ngil g‘ayri muqarrar”**

birikmasi ko'ngilning osoyishtaligi yo'qolganligi ma'nosida qo'llanadi. Doimiy iztirobdalik holati tasviri ishqning ruhiy ta'sirini metaforik tarzda ifodalaydi.

Umuman, g'azalda *ishq, hijron, yor vasli, falak, nur, sabo* kabi an'anaviy poetik obrazlar lingvopoetik birlik sifatida o'zaro uyg'unlashib, yaxlit badiiy-estetik tizimni yuzaga keltirgan. Baytda taxallus qo'llash, metaforik ifoda, emotsional-ekspressivlik va tanosub vositasida oshiqning yor ishq sababli ruhiy beqaror holatga tushgani tasvirlangan. **"Ey Vasliy"** murojaati esa lirik kechinmaning samimiy va ichki monolog tarzida ifodalanishiga xizmat qilgan.

Tahlillar natijasida Vasliy she'riyatida mumtoz o'zbek adabiyotiga xos poetik leksika faol qo'llangani aniqlandi. Shoir ijodida "yor", "ishq", "falak", "sabo", "nur", "vasl", "hijron" kabi an'anaviy poetik birliklar semantik-estetik vazifa bajaradi. Ayniqsa, "qildimu" radifining takroriy qo'llanishi she'rning ritmik-musiqiy tuzilishini mustahkamlab, lirik qahramon ruhiy kechinmalarining izchil ifodalanishiga xizmat qilgan.

Vasliy she'riyatida metafora, metonimiya, epitet va o'xshatishlar sharq mumtoz poetikasiga xos badiiy tafakkur asosida shakllangan. "Yuzin munavvar qildimu", "sochin muattar qildimu", "mehri anvor" kabi birikmalar yor obrazining ideal estetik talqinini yuzaga keltiradi. Bu poetik birliklarda nur, ifor, harakat va go'zallik semalari uyg'unlashib, obrazlilikni kuchaytirgan. Shoirning poetik sintaksisdan foydalanish mahorati ham alohida e'tiborga loyiq. Takror, parallelizm hamda murojaat shakllari she'rning ichki ohangdorligini ta'minlagan. Vasliy ijodida leksik birliklar quyidagi funksiyalarni bajargan: 1) shqiy obraz yaratish; 2) metaforik tizim hosil qilish; 3) mumtoz an'anani davom ettirish kabi.

Tadqiqot davomida *"Qirq bir yolg'on" bilan "Ming bir hikoyat"* aytaman misrasi intertekstual birlik sifatida baholanadi. "Qirq bir yolg'on" va "Ming bir hikoyat" birikmalari Sharq xalq og'zaki ijodi va qissachilik an'analari ishora qilib, matnning semantik qatlamini kengaytirgan. Bu holat Vasliy ijodida folklor va mumtoz adabiy an'analari uyg'unlashganini ko'rsatadi.

Qiyosiy tahlillar Vasliyning Navoiy, Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Huvaydo kabi shoirlar an'analari ijodiy ergashganini ko'rsatadi. Navoiy ijodida murakkab metaforik tizim, semantik ko'pqatlamlilik kuchli. Furqatda ma'rifiy va ishqiy leksika uyg'unlashgan, Huvaydoda tasavvufiy qatlam ustunligi kuzatilsa, Vasliyda esa sof ishqiy leksika soddaroq va xalqona shaklda beriladi.

Umuman olganda, Vasliy she'riyatida millatparvarlik, ma'rifatparvarlik va axloqiy-didaktik ruh ustuvor bo'lib, Sharqiy Turkiston o'zbek adabiy muhiti bilan o'zbek mumtoz va jadid adabiyoti o'rtasidagi ma'naviy-estetik aloqalarni namoyon qiladi. Shu jihatdan Vasliy ijodi nafaqat individual poetik hodisa, balki o'z davri adabiy-madaniy jarayonining tarkibiy qismi sifatida ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** Vasliy ijodi lingvopoetik jihatdan o'ziga xos poetik tizimga egaligi, she'riyatida Sharq mumtoz poetik leksika, an'anaviy obrazlar va badiiy tasvir vositalari

estetik yaxlitlik hosil qilganligi, metafora, epitet hamda poetik sintaksis birliklari lirik mazmunning emotsional-ekspressiv ifodasini ta'minlaganligi, intertekstual birliklar esa xalq og'zaki ijodi va mumtoz qissachilik an'analari bilan bog'liqlikni yuzaga chiqarganligi ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, tadqiqotda Vasliy ijodi misolida uyg'ur va o'zbek adabiy muhitidagi ijodiy hamkorlik, an'anaga munosabat va poetik tafakkur mushtarakligi namoyon bo'ladi. Shu bois Vasliy she'riyati o'zbek lingvopoetikasi hamda Sharqiy Turkiston adabiy muhitini o'rganishda muhim manba sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Vasliy she'riyati tasavvuf axloqi va ma'rifati, pok insoniy sevgi, axloqiy qadriyatlar tarannumi va ijtimoiy masalalarga qaratilgan. Bu adabiy meros o'sha davr uyg'ur va o'zbek adabiy aloqalarining qay darajada rivoj topganidan, ijodiy izlanishlardan darak beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Маматохунов У. Уйғур адабиёти классиклари. – Тошкент, 1960 (Mamatoxunov U. Classics of Uyghur literature. - Tashkent., 1960).
2. Каримова Ш. XX asr boshlari Shinjong o'zbek she'riyati // monografiya. – Toshkent: Press Print nashriyoti, 2025. – B.148.
3. “Shinjong o'zbek adiblari” Nashrga tayyorlovchi: Qodir Akbar. Shinjong xalq nashriyoti.1989 y., شىنجاڭ ئۆزبېكىستان يازغۇچىلىرى. نەشر قىلىشقا تەييارلانغان: قادىر ئەكبەر. شىنجاڭ خەلق نەشرىياتى 1989
4. Jakobson R. Linguistics and Poetics. Cambridge, 1960.
5. Lapasov J. Mumtoz adabiy asarlar o'quv lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1994. – B.314.
6. Виноградов В. В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. Москва: Наука, 1963. 253 с.
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати / Э.И. Фозилов таҳрири остида. – Тўрт томлик. – 1 -том. – Тошкент: Фан, 1983. Б.656.
8. Mahmudov N. Metafora va uning lingvopoetik imkoniyatlari// O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2023. – №4. – B.3.